

ILMIY-AMALIY JURNAL

Impact Factor: 5.394

ISSN 2181-0958

DOI 10.26739/2181-0958

YURISPRUDENSIYA

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ | JURISPRUDENCE



7 JILD, 3

2026

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 3



Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:

SALAEV NODIRBEK
O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi
professor, Yuridik fanlar doktori.

Bosh muharrir o'rinbosari:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

RUSTAMBEKOV ISLAMBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
Yuridik fanlar doktori, professor.

TAHRIRIY HAY'AT A'ZOLARI | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ |

Mas'ul kotib | Ответственный секретарь | Responsible secretary:

DAVRONOV ATOBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida o'qituvchisi,
PhD yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori.

KARIMOV FARHOD
Siyosiy fanlar doktori, dotsent,
A. Avloniy nomidagi
Malaka oshirish instituti prorektori;

BAZAROVA DILDORA
Toshkent davlat yuridik universiteti

yuridik fanlar doktori, professor;

IMOMOV NURILLO
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik huquqi
kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori, professor;

KHAIRIEV NODIRJON
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
professori, yuridik fanlar doktori, dotsent;

NEMATOV JURABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti
ma'muriy va moliyaviy huquq kafedrasida
dotsenti, yuridik fanlar doktori, dotsent;

ISMAILOV SHUKHRATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti mehnat
huquqi kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori;

KHABIBULLAEV DAVLATJON
Toshkent davlat yuridik universiteti fuqarolik
protsessual va xo'jalik protsessual huquqi kafedrasida
mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor;

OCHILOV KHASAN
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent;

IBROKHIMOV JAMSHID
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

GAFUROVA NOZIMAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti xalqaro
huquq va inson huquqlari kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

NARZIEV OTABEK
Toshkent davlat yuridik universiteti xususiy
xalqaro huquq kafedrasida i.o. professori,
yuridik fanlar doktori;

MUSAEV BEKZOD
Toshkent davlat yuridik universiteti
konstitutsiyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

MURATAEV SERIKBEK
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi;

KAMALOVA DILDORA
Yuridik fanlar doktori, professor;

YUSUPOV SARDORBEK
Toshkent davlat yuridik universiteti ma'muriy va
moliyaviy huquq kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha
falsafa doktori (PhD), yuridik fanlar doktori, dotsent;

KHUJAEVA SHOKHJAKHON
Toshkent davlat yuridik universiteti
intellektual mulk huquqi kafedrasida mudiri,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD);

CHORIEVA DILBAR
dotsent, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Page Maker | Верстка | Sahifalovchi: Xurshid Mirzaxmedov

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMINING RIVOJLANISHI BOSQICHLARI.....	5
Ummatov Muhammadrasul Tursunovich	
2. ПОДГОТОВКА МЕДИАТОРОВ ПО ТРУДОВЫМ СПОРАМ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ.....	15
Мавлонова Нигина Баходировна	
3. SUDYALAR DAXLSIZLIGI: HUQUQIY TABIATI VA UNI TA'MINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	30
Zaripov Jo‘rabek Sodikovich	
4. ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕДИАЦИИ В РАЗРЕШЕНИИ ТРУДОВЫХ СПОРОВ: АНАЛИЗ ЗАТРАТ И ВЫГОД.....	40
Мавлонова Нигина Баходировна	
5. ОСОБЕННОСТИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПРАВА СОБСТВЕННОСТИ НА БУДУЩЕЕ ЖИЛОЕ ПОМЕЩЕНИЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	53
Курбонова Комилабону Рамзбек кизи	
6. OILA HUQUQIDA NIKONLANUVCHI SHAXSLARNING MAJBURIY TIBBIY KO‘RIKDAN O‘TISHINING HUQUQIY ASOSLARI.....	67
Zaripov Jo‘rabek Sodikovich	
7. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ МЕДИАЦИИ В ТРУДОВЫХ СПОРАХ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: НАУЧНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ.....	77
Мавлонова Нигина Баходировна	

**OILA HUQUQIDA NIKOHLANUVCHI SHAXSLARNING MAJBURIY
TIBBIY KO'RIKDAN O'TISHINING HUQUQIY ASOSLARI**<https://doi.org/10.5281/zenodo.21651835>

Zaripov Jo'rabek Sodikovich

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti Yurisprudensiya ta'lim
yo'nalishi 3-bosqich talabasiGmail: jurabekzaripov7@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada oila huquqida nikohlanuvchi shaxslarning majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishining huquqiy asoslari tahlil qilingan. Unda O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining tegishli normalari hamda sohaviy normativ-huquqiy hujjatlar asosida nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini belgilovchi huquqiy mexanizmlar, mazkur jarayonning maqsadi va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, nikohlanuvchi shaxslarning sog'lig'i holatini aniqlash, ayrim kasalliklarning oldini olish, tomonlarning nikoh va kelajakdagi oilaviy hayot to'g'risida ongli qaror qabul qilishiga imkon yaratish hamda sog'lom oilani shakllantirishda majburiy tibbiy ko'rikning o'rni tahlil qilingan. Mazkur institutning huquqiy va ijtimoiy ahamiyati amaldagi qonunchilik normalari asosida ochib berilib, nikoh tuzish jarayonida tibbiy ko'rikdan o'tishning zaruriy jihatlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila huquqi, nikoh, nikohlanuvchi shaxslar, majburiy tibbiy ko'rik, Oila kodeksi, Vazirlar Mahkamasi qarori, sog'liqni muhofaza qilish, oilaviy munosabatlar.

**LEGAL FOUNDATIONS OF MANDATORY MEDICAL EXAMINATION OF PERSONS
ENTERING INTO MARRIAGE IN FAMILY LAW**

Jurabek Sodikovich Zaripov

Bukhara State University Faculty of History and Law Bachelor's Degree Program in
Law Third-year Student

Abstract. This scientific article analyzes the legal foundations of the mandatory medical examination of persons intending to enter into marriage within family law. It examines the legal mechanisms regulating the procedure for conducting medical examinations of persons intending to marry, as well as the purpose and significance of this process, based on the relevant provisions of the Family Code of the Republic of Uzbekistan and sectoral regulatory legal acts. The article also analyzes the role of mandatory medical examinations in determining the health condition of persons intending to marry, preventing certain diseases, enabling the parties to make informed decisions regarding marriage and future family life, and establishing a healthy family environment. The legal and social significance of this institution is revealed on the basis of current legislation, and the necessity of undergoing a medical examination during the process of entering into marriage is examined from a scientific and theoretical perspective.

Keywords: family law, marriage, persons intending to marry, mandatory medical examination, Family Code, Resolution of the Cabinet of Ministers, health protection, family relations.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОБЯЗАТЕЛЬНОГО МЕДИЦИНСКОГО ОБСЛЕДОВАНИЯ ЛИЦ, ВСТУПАЮЩИХ В БРАК, В СЕМЕЙНОМ ПРАВЕ

Зарипов Журабек Садыкович

Бухарский государственный университет Историко-юридический факультет

Направление подготовки «Юриспруденция» Студент 3 курса

Аннотация. В данной научной статье анализируются правовые основы обязательного медицинского осмотра лиц, вступающих в брак, в семейном праве. На основе соответствующих норм Семейного кодекса Республики Узбекистан и отраслевых нормативно-правовых актов раскрываются правовые механизмы, регулирующие порядок проведения медицинского осмотра лиц, намеревающихся вступить в брак, а также цель и значение данного процесса. Кроме того, исследуется роль обязательного медицинского осмотра в определении состояния здоровья лиц, вступающих в брак, предупреждении отдельных заболеваний, обеспечении возможности принятия сторонами осознанного решения относительно брака и будущей семейной жизни, а также формировании здоровой семьи. Правовое и социальное значение данного института раскрывается на основе действующих норм законодательства, а необходимость прохождения медицинского осмотра при заключении брака рассматривается с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: семейное право, брак, лица, вступающие в брак, обязательный медицинский осмотр, Семейный кодекс, постановление Кабинета Министров, охрана здоровья, семейные отношения.

Kirish

Oila jamiyatning eng muhim va barqaror ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, uning mustahkamligi nafaqat er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlarga, balki ularning jismoniy, ruhiy va reproduktiv salomatligiga ham bevosita bog'liqdir. Sog'lom oilani shakllantirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom avlodni voyaga yetkazish davlatning ijtimoiy siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, nikoh tuzishdan oldin nikohlanuvchi shaxslarning majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi oila huquqining muhim institutlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida irsiy kasalliklar, reproduktiv salomatlik bilan bog'liq muammolar, OIV infeksiyasi, virusli gepatitlar, sil va boshqa yuqumli kasalliklarning uchrashi nikohdan oldingi tibbiy ko'rik institutining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning asosiy

maqsadi ularning sogʻligʻi holati toʻgʻrisida oʻz vaqtida va ishonchli maʼlumotga ega boʻlish, kelajakdagi oilaviy hayot jarayonida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan tibbiy hamda ijtimoiy muammolarning oldini olish, shuningdek, sogʻlom avlodni dunyoga keltirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Ushbu institut fuqarolarning shaxsiy manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda, oilaning barqarorligini taʼminlash, jamiyat salomatligini mustahkamlash va sogʻlom avlod shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon boʻladi.

Oʻzbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash, fuqarolarning salomatligini muhofaza qilish hamda sogʻlom avlodni tarbiyalash masalalari davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari sifatida eʼtirof etilgan hamda onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. [1].

Shu maqsadda Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Oʻzbekiston Respublikasining “Fuqarolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida”, “Psixiatriya yordami toʻgʻrisida”, “Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning (OIV kasalligining) oldini olish toʻgʻrisida”, “Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi qonunchilik hujjatlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nikohlanuvchi shaxslarning majburiy tibbiy koʻrikdan oʻtishiga oid huquqiy normalar mustahkamlab qoʻyilgan. [2]. Ushbu normalar fuqarolarning sogʻligʻini muhofaza qilish, irsiy va yuqumli kasalliklarning oldini olish, tibbiy madaniyatni yuksaltirish hamda oilaviy munosabatlarda oʻzaro ishonch va masʼuliyatni taʼminlashga qaratilgan. Shu bilan birga, mazkur institutning huquqiy mohiyati va uni amaliyotda qoʻllash bilan bogʻliq ayrim masalalar ilmiy-huquqiy tahlilni talab etmoqda. Xususan, tibbiy koʻrik natijalarining maxfiyligini taʼminlash, shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bilan majburiy tibbiy koʻrik oʻrtasidagi muvozanatni saqlash, nikohlanuvchilarning xabardor roziligini taʼminlash, tibbiy xulosa berish tartibini takomillashtirish hamda xalqaro standartlar bilan milliy qonunchilikni uygʻunlashtirish masalalari bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, nikohdan oldingi tibbiy koʻrikni tashkil etishning huquqiy modeli mamlakatlarning demografik siyosati, sogʻliqni saqlash tizimi va milliy qadriyatlaridan kelib chiqib turlicha shakllangan. Ayrim davlatlarda bunday koʻrik majburiy hisoblanib, nikohni davlat roʻyxatidan oʻtkazishning shartlaridan biri sifatida belgilangan boʻlsa, boshqalarida esa u ixtiyoriy yoki tavsiyaviy tusga ega. Shu sababli mazkur sohada rivojlangan davlatlar tajribasini qiyosiy-huquqiy jihatdan oʻrganish milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun muhim ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi oila huquqida nikohlanuvchi shaxslarning majburiy tibbiy koʻrikdan oʻtishining huquqiy asoslarini milliy va xalqaro huquq normalari nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilish, amaldagi qonunchilikning afzalliklari va mavjud muammolarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun oila va sogʻliqni saqlash sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, huquqni qoʻllash amaliyoti hamda xorijiy davlatlar tajribasi qiyosiy-huquqiy, tizimli va mantiqiy tahlil metodlari asosida oʻrganiladi.

Asosiy qism

Nikoh ikki shaxsning erkin va o'zaro roziligi asosida shakllanadigan oilaviy-huquqiy munosabat bo'lishi bilan birga, jamiyat hamda davlat manfaatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy-huquqiy institut hisoblanadi. Shu bois nikoh tuzish jarayonida davlat tomonidan muayyan huquqiy talablarning belgilanishi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash sifatida emas, balki oilaning barqarorligini ta'minlash, sog'lom avlodni shakllantirish hamda oilaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan himoya qilishga qaratilgan kafolat sifatida namoyon bo'ladi.

Nikohlanuvchi shaxslarning majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi oila huquqining profilaktik institutlaridan biri hisoblanadi. Mazkur institutning asosiy maqsadi nikohlanuvchi shaxslarning sog'lig'i holatini aniqlash, ularda irsiy yoki yuqumli kasalliklar mavjud bo'lgan taqdirda tegishli tibbiy maslahat va tavsiyalar berish, shuningdek, kelgusidagi oilaviy hayot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarning oldini olishdan iboratdir. Tibbiy ko'rik nikoh tuzishni cheklovchi yoki taqiqlovchi vosita sifatida emas, balki shaxslarning nikoh va oilaviy hayotga oid masalalarda ongli, asoslantirilgan hamda mas'uliyatli qaror qabul qilishiga ko'maklashuvchi huquqiy-tibbiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Majburiy tibbiy ko'rik instituti fuqarolarning sog'lig'ini saqlash huquqi, shaxsiy hayot daxlsizligi, tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash hamda oilani davlat tomonidan muhofaza qilish tamoyillari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli ushbu institutni amalga oshirish jarayonida shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari bilan jamiyat hamda davlatning sog'lom oilani shakllantirishga qaratilgan manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim huquqiy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida nikohlanuvchi shaxslarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazishning huquqiy asoslari Oila Kodeksi bilan tartibga solinadi.

Oila kodeksining 17-moddasi "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish" deb nomlangan bo'lib, unga binoan nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek, tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha maslahatlar berish nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.[3]. Mazkur norma ning belgilanishidan asosiy maqsad nikohlanuvchi shaxslarning sog'lig'i holatini aniqlash, ularni nikoh va oilaviy hayot bilan bog'liq tibbiy masalalar yuzasidan xabardor qilish hamda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sog'liq bilan bog'liq muammolarning oldini olishdan iboratdir. Shuningdek, ushbu tartib orqali nikohlanuvchi shaxslarga tibbiy-irsiy omillar, oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha zarur tavsiyalar berish, sog'lom oilani shakllantirish va kelajak avlod salomatligini muhofaza qilish uchun huquqiy hamda tibbiy shart-sharoitlar yaratiladi.

2004-yil 1-yanvardan boshlab nikohdan oldin majburiy tibbiy ko'rikdan o'tish tartibi qonunchilik bilan belgilandi va amaliyotga joriy etildi. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi 365-son qarori bilan tasdiqlangan bo'lib, mazkur hujjat nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini huquqiy jihatdan tartibga soldi.

Mazkur nizom nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilaydi. Unda tibbiy ko'rikni o'tkazish tartibi, davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarining vazifalari, nikohlanuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, tibbiy-irsiy maslahat hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha xizmat ko'rsatish tartibi nazarda tutilgan.

Nizomning asosiy maqsadi nikoh tuzayotgan shaxslarning sog'lig'i holatini aniqlash, ularga zarur tibbiy maslahatlar berish, oilaviy hayotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tibbiy muammolarning oldini olish hamda sog'lom oilani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Nizomga muvofiq nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tish tartibini quyidagilardan iborat: [4].

Mazkur nizomga ko'ra, tibbiy ko'rikning asosiy maqsadi sog'lom oilani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, irsiyat bilan bog'liq hamda tug'ma kasalliklarga chalingan bolalar tug'ilishining oldini olishdan iborat. Nizom talablari O'zbekiston Respublikasi FHDY organlari tomonidan qayd etiladigan nikohlarga tatbiq etiladi. Nikohlanuvchi shaxslar FHDY organlari tomonidan doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyidagi davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalariga tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yuboriladi. Mazkur yo'llanmalar nikoh tuzish to'g'risidagi arizalarni ro'yxatga olish jarayonida qayd etiladi. Tibbiy ko'rik nikohlanuvchi shaxslarning roziligi asosida bepul amalga oshiriladi. Ko'rik jarayonida shaxslarning ruhiy holati, narkologik holati, tanosil kasalliklari, sil kasalligi hamda OIV/OITS bilan bog'liq holatlari tekshiriladi. Shuningdek, zaruratga qarab umumiy tibbiy ko'rik, ayrim mutaxassislar ko'rigi, laboratoriya va boshqa diagnostik tekshiruvlar ham o'tkazilishi mumkin.

Tibbiy ko'rikni amalga oshirish vakolati tegishli tibbiyot muassasalarining mutaxassislariga yuklatiladi. Jumladan, ruhiy holat bilan bog'liq masalalar psixiatr shifokorlar, narkologik holatlar narkolog mutaxassislar, teri-tanosil kasalliklari tegishli mutaxassislar, sil kasalligi ftiziatrlar hamda OIV/OITS holatlari maxsus tibbiyot muassasalari tomonidan tekshiriladi. Ko'rik natijalari maxsus tibbiy hujjatlarda aks ettiriladi va tibbiyot muassasasining xulosasi bilan tasdiqlanadi. Tibbiy ko'rikdan o'tkazish jarayonida shaxslarning tibbiy ma'lumotlari maxfiyligi ta'minlanadi. Tibbiyot xodimlari aniqlangan holatlar yuzasidan nikohlanuvchi shaxslarga tegishli tushuntirish va maslahatlar berishi lozim. [5].

Nikohni qayd etish jarayonida FHDY organlari nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tganligi hamda uning natijalaridan xabardor ekanligini hisobga oladi. Agar ko'rik davomida muayyan kasalliklar aniqlansa, bu holat nikohni avtomatik ravishda bekor qilish yoki taqiqlash uchun asos bo'lmaydi. Bunda asosiy talab tomonlarning tibbiy holat haqida xabardorligi va ongli qaror qabul qilganligini ta'minlashdan iborat.

Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi nafaqat O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 17-moddasi, balki fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida ham tartibga solinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish

qoidalari”ning 5-bobida nikohni qayd etish tartibi, shu jumladan nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish bilan bog‘liq qoidalar belgilangan.

Mazkur qoidalarga ko‘ra, nikoh tuzishni xohlovchi shaxslarning yozma yoki elektron shakldagi arizasi asosida ularga tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun yo‘llanma beriladi. Hozirgi tartibga muvofiq, ushbu yo‘llanma tibbiyot muassasalarining axborot tizimlariga elektron shaklda avtomatik ravishda yuboriladi, zarurat bo‘lganda esa nikohlanuvchi shaxslarning talabiga ko‘ra qog‘oz shaklida ham taqdim etilishi mumkin. [6]. Oila kodeksining 17-moddasiga binoan, nikohlanuvchi shaxslar davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi. Tibbiy ko‘rikning hajmi va uni amalga oshirish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Mazkur tartib nikohlanuvchilarning sog‘lig‘i holatini aniqlash, ularni mavjud tibbiy xavflar to‘g‘risida xabardor qilish hamda kelajakdagi oilaviy hayot bilan bog‘liq masalalarda ongli qaror qabul qilish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. [7].

Shuningdek, qonunchilikda nikohlanuvchi shaxslarning yoshi va ayrim holatlarga qarab tibbiy ko‘rikdan o‘tish tartibining o‘ziga xos jihatlari ham belgilangan. Jumladan, ellik yoshgacha bo‘lgan nikoh tuzuvchi shaxslar OIV infeksiyasi bo‘yicha tibbiy tekshiruvdan majburiy tartibda o‘tkaziladi. Ellik yoshdan oshgan shaxslar, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan ayrim alohida holatlarda tibbiy ko‘rikdan faqat o‘z roziligi asosida o‘tkaziladi.

Shunday qilib, nikohni qayd etish jarayonida tibbiy ko‘rikdan o‘tish talabi nikoh tuzishning mustaqil sharti sifatida emas, balki nikohlanuvchi shaxslarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ularni zarur tibbiy axborot bilan ta‘minlash va sog‘lom oilani shakllantirishga qaratilgan huquqiy kafolat sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu mexanizm shaxslarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish, oilaviy munosabatlarning barqarorligini ta‘minlash va sog‘lom avlod shakllanishiga xizmat qiladi.

Nikohdan oldingi tibbiy ko‘rikning joriy etilishi fuqarolar salomatligini muhofaza qilish, onalik va bolalikni himoya qilish hamda sog‘lom avlodni voyaga yetkazish borasidagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur institutning samarali faoliyati bir qator ijtimoiy va huquqiy natijalarga erishish imkonini beradi.

Birinchidan, tibbiy ko‘rik nikohlanuvchilarning sog‘lig‘i haqida xabardorligini oshiradi. O‘z sog‘lig‘i to‘g‘risida yetarli ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxs oilaviy hayotga mas‘uliyat bilan yondashadi hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ikkinchidan, irsiy kasalliklarning oldini olishda tibbiy-genetik maslahatlar muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohlar uchraydigan hududlarda genetik tekshiruvlarning ahamiyati yanada ortadi.

Uchinchidan, OIV infeksiyasi, virusli gepatitlar, sil va boshqa yuqumli kasalliklarni erta aniqlash ularning oilada tarqalishining oldini olishga xizmat qiladi. Natijada sog‘liqni saqlash tizimiga tushadigan iqtisodiy yuk kamayadi hamda aholining tibbiy madaniyati yuksaladi.

To‘rtinchidan, majburiy tibbiy ko‘rik oilaviy nizolarni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Chunki nikohdan keyin yashirilgan og‘ir kasalliklarning aniqlanishi ko‘pincha oilaviy nizolar, ajrimlar yoki farzand ko‘rish bilan bog‘liq muammolarga sabab

bo'ladi. Nikohdan oldingi tibbiy tekshiruv bunday holatlarning oldini olishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasida nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tizimi izchil takomillashib borayotgan bo'lsa-da, ayrim huquqiy va tashkiliy muammolar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, tibbiy ko'rik natijalari bo'yicha nikohlanuvchilarga huquqiy va psixologik maslahat berish tizimini yanada kuchaytirish zarur. Kasallik aniqlangan hollarda faqat tibbiy xulosa berish bilan cheklanmasdan, oilaviy hayot, reproduktiv salomatlik va davolanish imkoniyatlari yuzasidan kompleks maslahatlar tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, elektron sog'liqni saqlash tizimlari orqali tibbiy ko'rik natijalarini himoyalangan raqamli platformalarda yuritish, biroq tibbiy sirni saqlash talablariga qat'iy rioya qilish lozim.

Uchinchidan, nikohdan oldingi tibbiy ko'rikning mazmuni va ahamiyati bo'yicha aholining huquqiy hamda tibbiy savodxonligini oshirish maqsadida ommaviy axborot vositalari, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish zarur.

To'rtinchidan, zamonaviy tibbiyot yutuqlarini hisobga olgan holda genetik skrining, reproduktiv salomatlik bo'yicha maslahat va psixologik tayyorgarlik elementlarini tibbiy ko'rik tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, xalqaro tajriba va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining profilaktik tibbiyotga oid tavsiyalarini milliy qonunchilikka mos ravishda implementatsiya qilish majburiy tibbiy ko'rik institutining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Tahlil

O'tkazilgan huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, nikohlanuvchi shaxslarning majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi oilani huquqiy muhofaza qilishning muhim profilaktik institutlaridan biri hisoblanadi. Mazkur institut orqali fuqarolarning sog'lig'i, reproduktiv salomatligi hamda kelajak avlod manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizm shakllantirilgan. O'zbekiston Respublikasida ushbu munosabatlar Oila kodeksi, sog'liqni saqlash to'g'risidagi qonunchilik va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan bo'lsa-da, ularni qo'llash amaliyotida ayrim tashkiliy va huquqiy muammolar saqlanib qolmoqda.

Birinchidan, amaldagi qonunchilik tibbiy ko'rikning majburiyligini belgilagan bo'lsa-da, uning mazmuni, ko'lami va huquqiy oqibatlari bo'yicha yagona yondashuvni yanada aniqlashtirish zarur. Tibbiy ko'rikning asosiy maqsadi nikohni cheklash emas, balki nikohlanuvchilarning sog'lig'i to'g'risida xabardorligini oshirish va ongli qaror qabul qilishiga ko'maklashishdan iborat. Shu bois mazkur institut insonning nikoh tuzish huquqini cheklovchi vosita sifatida emas, balki sog'lom oilani shakllantirishning huquqiy kafolati sifatida baholanishi lozim.

Ikkinchidan, tibbiy ko'rik natijalari bilan bog'liq maxfiylik masalalari alohida e'tiborni talab etadi. Tibbiy sirni saqlash fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo'lib, mazkur tamoyil buzilishi shaxsning sha'ni, qadr-qimmati va shaxsiy hayot daxlsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli tibbiy ma'lumotlardan

foydalanish va ularni saqlashning raqamli mexanizmlarini takomillashtirish, axborot xavfsizligini kuchaytirish dolzarb vazifalardan biridir.

Uchinchidan, xorijiy davlatlar tajribasining qiyosiy tahlili majburiy tibbiy ko'rikni tashkil etishda turli huquqiy modellar mavjudligini ko'rsatadi. Yaqin Sharq davlatlarida ko'proq profilaktik va demografik manfaatlar ustuvor bo'lsa, Yevropa davlatlarida insonning shaxsiy erkinligi va tibbiy aralashuvga rozilik tamoyili ustun qo'yilgan. Bu holat O'zbekiston uchun ham milliy qadriyatlar, sog'liqni saqlash siyosati va xalqaro inson huquqlari standartlari o'rtasida muvozanatli huquqiy modelni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, huquqni qo'llash amaliyoti shuni ko'rsatadiki, nikohlanuvchilarning tibbiy ko'rikdan o'tishiga nisbatan huquqiy ong va tibbiy madaniyat darajasi barcha hududlarda bir xil emas. Ayrim hollarda tibbiy ko'rik faqat rasmiy tartib-taomil sifatida qabul qilinmoqda. Bu esa mazkur institutning profilaktik samaradorligini pasaytiradi. Demak, aholining huquqiy va tibbiy savodxonligini oshirish, nikohdan oldingi maslahat xizmatlarini kengaytirish hamda tibbiy ko'rikning ijtimoiy ahamiyatini targ'ib qilish zarur.

Natijalar

Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalar va amaliy natijalarga erishildi:

- nikohlanuvchi shaxslarning majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi sog'lom oilani shakllantirish va fuqarolarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy institut ekanligi asoslandi;
- amaldagi milliy qonunchilikda ushbu institutning huquqiy asoslari yetarli darajada shakllangan bo'lsa-da, tibbiy ko'rikning tashkiliy mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligi aniqlandi;
- tibbiy ko'rik natijalarining maxfiyligini ta'minlash hamda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish zarurligi asoslab berildi;
- tibbiy ko'rik jarayoniga genetik maslahat, reproduktiv salomatlik bo'yicha konsultatsiyalar va psixologik yordam elementlarini tizimli ravishda integratsiya qilishning ijobiy samara berishi ko'rsatildi;
- xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy tahlil qilish natijasida O'zbekiston qonunchiligiga mos bo'lgan profilaktik yo'nalishdagi huquqiy mexanizmlarni joriy etish maqsadga muvofiqligi asoslandi;
- nikohdan oldingi tibbiy ko'rik bo'yicha aholining huquqiy madaniyatini oshirish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish davlat organlari, sog'liqni saqlash muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuchaytirishni talab qilishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rikdan o'tish tizimini takomillashtirish, sog'liqni saqlash va oila huquqi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni yanada rivojlantirish hamda huquqni qo'llash amaliyotining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, nikohlanuvchi shaxslarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish instituti oila huquqida muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Mazkur

institutning asosiy maqsadi nikoh tuzishni cheklash emas, balki nikohlanuvchi shaxslarning sog'lig'i holati to'g'risida xabardorligini ta'minlash, ehtimoliy tibbiy xavflarning oldini olish hamda sog'lom oilani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi hamda nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlili mazkur sohada aniq huquqiy mexanizm shakllanganligini ko'rsatadi. Ushbu hujjatlarda tibbiy ko'rikni amalga oshirish tartibi, nikohlanuvchi shaxslarning huquqlari, tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligi va tibbiyot muassasalarining vakolatlari belgilab berilgan.

Mazkur institut sog'liqni saqlash va oila huquqi sohalarining o'zaro bog'liqligini namoyon etib, fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish, oilaviy munosabatlarda mas'uliyatli qaror qabul qilish va kelajak avlod salomatligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy tibbiyot va axborot texnologiyalarining rivojlanishi ushbu sohadagi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishni talab etadi. Xususan, elektron tibbiy axborot tizimlaridan samarali foydalanish, tibbiy-irsiy maslahat xizmatlarini rivojlantirish hamda tibbiy ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash bo'yicha kafolatlarni kuchaytirish mazkur institutning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Fikrimcha, ushbu yo'nalishda quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Nikohlanuvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibini yagona elektron platforma orqali tashkil etish va ma'lumotlar xavfsizligini kuchaytirish.
2. Tibbiy ko'rik yakunida nikohlanuvchilar uchun reproduktiv salomatlik va oilaviy hayot masalalari bo'yicha majburiy maslahat xizmatini joriy etish.
3. Tibbiy ko'rik jarayonida genetik skrining va zamonaviy diagnostika usullaridan foydalanish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish.
4. Nikohdan oldingi tibbiy ko'rikning huquqiy va ijtimoiy ahamiyati bo'yicha aholining huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks targ'ibot dasturlarini ishlab chiqish.
5. Xalqaro tajriba va inson huquqlari standartlarini hisobga olgan holda ushbu institutni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni muntazam takomillashtirib borish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi nikohlanuvchi shaxslarning sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'lom oilalarni shakllantirish va oila huquqi institutlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 78-modda. <http://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi 17-modda. <http://lex.uz//ru/docs/-104720>

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-avgustdagi 365-son qarori bilan tasdiqlangan “Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi [nizom](https://lex.uz/mact/-245890#-394818). <https://lex.uz/mact/-245890#-394818>
4. Abdullayeva F.Sh. Oila huquqi asoslari: o‘quv qo‘llanma. - Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2021. - 17-bet.
5. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 5-bobi. <https://lex.uz/mact/-6638940#-6640313>

YURISPRUDENSIYA

7 ЖИЛД, 3 СОН

ЮРИСПРУДЕНЦИЯ

ТОМ 7, НОМЕР 3

JURISPRUDENCE

VOLUME 7, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000